

Date: 7th February-2026

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA TILNING AXLOQIY KUCHI: KUNTUG‘DI VA
OYTO‘LDI SUHBATLARIDA TIL ODOBI

Hasanova Aziza Raxatjanovna
ummusolihahasanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida til odobi va nutq madaniyatining badiiy-falsafiy talqini Oyto‘ldi va Kuntug‘di obrazlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda so‘zlash va sukut saqlash masalasi axloqiy va ijtimoiy mezon sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, Oyto‘ldi, Kuntug‘di til odobi, nutq madaniyati, so‘z va sukut.

Abstract: This thesis examines the artistic and philosophical interpretation of speech etiquette and language culture in Yusuf Khass Hajib’s Qutadgu Bilig, focusing on the characters of Aytoldi and Kuntugdi. The study highlights the ethical and social significance of speech and silence as key elements of moral education and leadership.

Keywords: Qutadgu Bilig, Aytoldi, Kuntugdi speech etiquette, language culture, word and silence.

Аннотация: В статье анализируются речи Кунтогда и Айтолды в произведении Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг», рассматриваются культура речи, речевой этикет и нравственные нормы.

Ключевые слова: Кутадгу билиг, Кунтогда, Айтолды, речевой этикет, культура речи, слово и молчание.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy adabiyot tarixida nafaqat siyosiy-falsafiy doston, balki til madaniyati va nutq odobiga oid qarashlarni mujassam etgan yirik manba sifatida tanilgan. Asarda so‘zning axloqiy mas‘uliyati, nutqning ijtimoiy ta‘siri va tilning ma‘naviy kamolotdagi o‘rni yetakchi g‘oyalardan biri sifatida ilgari suriladi. Asarda so‘zning axloqiy mas‘uliyati, nutqning ijtimoiy ta‘siri va tilning ma‘naviy kamolotdagi o‘rni yetakchi g‘oyalar sifatida ilgari suriladi.[4, 10] Kuntug‘di (adolat timsoli) va Oyto‘ldi (davlat va hikmat ramzi) o‘rtasidagi muloqotlar orqali muallif nutq madaniyatining falsafiy asoslarini ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi — “Qutadg‘u bilig” asarida Kuntug‘di va Oyto‘ldi nutqi orqali til odobi, nutq madaniyati va axloqiy me‘yorlarni tahlil qilish.

Tadqiqotda matnshunoslik, badiiy-tahliliy, germeneytik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Asarning “So‘zlash va sukut saqlash odobi”ga bag‘ishlangan bobidagi baytlar semantik va kontekstual jihatdan tahlil qilinib, ularning axloqiy-falsafiy mazmuni aniqlashtirildi. Shuningdek, obrazlar nutqining ijtimoiy mavqega mosligi masalasi stilistik yondashuv asosida o‘rganildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Qutadg‘u bilig” da til odobi shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy tartib va boshqaruvning muhim omili sifatida talqin etiladi.

Kuntug‘di nutqi.



Date: 7th February-2026

Kuntug'di — adolat timsoli sifatida og'ir-bosiq, me'yorli va mulohazali tilda so'zlaydi[4,10]. U savollar berishda faqat ma'noli va axloqiy jihatdan asosli fikrlarni so'raydi. Masalan, u Oyto'ldidan til odobi va so'zlash etikasi bo'yicha savol beradi, bu orqali hokimiyat va hikmat o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatadi:

Savol va javob orqali Kuntug'di podshohning adolat va mas'uliyatini, Oyto'ldi esa hikmat va donolikni ifodalaydi.

Kuntug'di nutqi shuningdek, ijtimoiy adolat va rahbarlik fazilatlarini targ'ib qiladi, u so'zlashdan oldin fikrini tartiblaydi va rashk yoki shaxsiy manfaatni emas, jamiyat farovonligini hisobga oladi. Oyto'ldi obrazining nutqi mulohazalilik, vazminlik va sukut san'atiga asoslanadi. Masalan, Oyto'ldining so'zlashdan avval sukut saqlashi uning ijtimoiy va ma'naviy yetukligini ifodalaydi:

Biliglig sözi sen ešit uznama,

Ayitmasa ašnu sözünj sözlämä[8, 196] —

bu baytda Oyto'ldi so'zlashdan oldin tinglashni afzal bilishi, so'ralmasdan gapirmasligi donolik belgisidir.

Shuningdek, Oyto'ldining pandida til va aql o'rtasidagi munosabat quyidagicha ifodalanadi:

Biligsiz tili tutči berklig keräk,

Biliglik kiši tilqa erklig keräk[8, 200].

So'zning ijobiy va salbiy oqibatlari ham alohida ta'kidlanadi:

Söz asyi bilä kör yayız yerdäki,

Yašil kökkä yuqlar bolur tördäki[8, 202]

— o'rni bilan aytilgan so'z insonni eng past martabadan eng yuqori darajaga ko'tarsa, o'rinsiz so'z eng yuksak shaxsni yerga uradi.

Oyto'ldi pandlarida shuningdek so'zlash va sukut o'rtasidagi nisbat, tinglovchi bilan bog'liq ta'sir ham muhokama qilinadi.

Matnshunoslik va badiiy-tahlil natijalariga ko'ra, "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'di va Oyto'ldi nutqi orqali til odobi nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy barqarorlik va axloqiy me'yorlar bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi. "So'z – kumush, sukut – oltin" g'oyasi ikki obraz nutqi orqali amalga oshadi. Shu jihatdan, asar nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi zamonaviy kommunikatsiya madaniyati uchun ham dolzarb bo'lgan axloqiy-me'yoriy modelni taklif etadi.

"Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'di va Oyto'ldi nutqi tahlili shuni ko'rsatadiki, til odobi va nutq madaniyati "Qutadg'u bilig"da ikki darajada — hokim va vazir obrazlari orqali — badiiy-falsafiy konsepsiya sifatida ifodalanadi. Kuntug'di savol beruvchi, axloqiy yetakchi timsoli, Oyto'ldi esa javob beruvchi, mulohazali va dono vazir sifatida so'zning kuchi, mas'uliyati va ma'naviy tarbiya vositasi ekanligini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Исҳоқов. Ё. "Сўз санъати сўзлиги" – Т.: Зарқалам, 2006. –126 б.
2. Mehmet B. "Kutadgu Bilig'de Dil ve Üslup: Ahlaki-Estetik Normlar." History Studies International Journal of History, 2024(2), – S. 95–119.



Date: 7th February-2026

3. Содиқов Қ. “Қутадғу билиг” сўзлиги [Матн]:илмий–оммабоп нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2020.– 304 б.
4. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari.– Toshkent. Akademnashr, 2025. – 360 b.
5. Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2022. –320 b.
6. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халklar фольклори.” –Тошкент: Bayoz, 2013.– 115 б.
7. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари. – Тошкент, 1991.– 458 б.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Каримов Қ. – Тошкент: “Фан”, 1971.– 964 б.

